

O'QUVCHI - YOSHLARNING HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASIDA ARTPEDAGOGIK VOSITALARNING AHAMIYATI



ELSEVIER



Received: 21-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

Madaliyev Rahmaddin Ismoilovich

FarDU Harbiy ta'lif fakul'teti.



Abstract: Mazkur maqolada o'quvchi -yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati, ular yordamida o'quv mashgulotlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkillash va o'tkazish shakl va uslublari to'grisida so'z yuritiladi.

Keywords: O'zbek adabiyoti va san'ati, harbiy-tarixiy voqealar, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, qahramonlikning axloqiy-ijtimoiy manbalari, jonli muloqot.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

«Bu dunyoda faqat bir muammo bor - odamlarga
hayotdan ma'naviy qoniqish hissini qaytarish kerak.

Ma'naviy boyliksiz qalb toshga aylanur...
Komillikka yo'naltirilgan didni tarbiyalamoq lozim»

(Sent Ekzyuperi)

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida tasviriy san'atning tutgan roli. Tasviriy san'atda Vatan himoyachilar mavzusi talqini.

Tasviriy san'at - yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida o'ziga xos san'at turi sifatida alohida o'rinn egallaydi. Tasviriy san'atdagi rassomchilik, grafika va haykaltaroshlikda yaratilgan obrazlar inson xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi. Ular insonlarda, ayniqsa yoshlarda go'zallikka bo'lgan intilish va tuyg'ulari, olam sir-sanoatlariga to'g'ri munosabatda bo'lish sifatlarini shakllantirishga ko'mak beradi.

O'zbekiston zamonaviy tasviriy san'atida ko'pgina rassomlar harbiy vatanparvarlik mavzularida samarali ijod qilib keldi. Zero, harbiy vatanparvarlik o'lmas mavzulardan biri sanaladi. Shu boisdan ham ijodkorlar buyuk sarkardalar, tengsiz bahodirlar – vatanimizning jasur himoyachilar obrazlarini o'z iste'dodi va mahoratidan kelib chiqib, o'ziga xos yo'nalishda tasvirlashga intiladilar. Ana shunday rassomlardan biri taniqli ijodkor To'ra Quryozovdir. Ma'lumki, tarixiy janrda asar yaratish ko'pgina rassomlar uchun qiyinchilik tug'diradi. Chunki, ular xalq an'analari, urf-odatlari, rasm-rusumlari, orzu-intilishlarini mukammal bilishi hamda o'sha davr arxitekturasi,

qurol-aslahalari, kiyim-kechaklari, xullas tarixiy jarayonni puxta o'rganishlari kerak bo'ladi.

To'ra Quryozov ham tarixiy mavzuga qo'l urishdan oldin o'zi qalamga olmoqchi bo'lgan davr, odamlar haqida ko'proq bilishga harakat qildi. Ko'plab tarixiy kitoblarga va rivoyatlarga murojaat qildi.

Bunda u eng mayda detallargacha nazardan qochirmaslikka intildi. Ijodkorning diqqatga sazovor harbiy vatanparvarlik mavzusidagi asarlaridan biri bu yurtimizga bostirib kirgan Chingizzon qo'shinlariga qarshi ayovsiz janglarda ko'p marotaba qahramonlik namunalarini ko'rsatgan xorazmlik matonatli qo'mondon Jaloliddin Manguberdi portretidir.

Ushbu asar ham tarixiy kitoblarda berilgan ma'lumotlar asosida ishlangan bo'lib, unda chuqur mulohazali, qat'iyatli sarkarda siymosi tasvirlangan. Jaloliddinning qoyadek mustahkam, mag'rur va ayni chog'da jasoratli inson ekanligi chehrasidan, qat'iyatli qarashlaridan sezilib turibdi. Unda qahramon go'yo u o'z yurtini yovlardan himoya qilish uchun tayyor turgan holatda, vajohatidan nafrati ortgan, sergak sarkarda ko'rinishida, pishiq kompozitsion yechimda aks ettirilgan.

E'tiborli jihat, rassom qahramonning ichki hissiyotlarini

uning uzoqlarga tikilib turgan ko'zlarida aks ettirishga harakat qilgan va shu orqali qahramonning o'zi tug'ilib o'sgan ona Vatan va uning bag'rida yashayotgan yurtdoshlarining taqdiri uchun qayg'urayotgani, iztirobi va ichki tug'yonlarini aniq ifodalashga muvaffaq bo'lgan. Bu esa asar muvaffaqiyatini belgilagan eng muhim omillardan sanaladi. Aytish kerakki, mazkur asar rassomning ko'p yillik tajribasi bilan birga yuksak mahorati natijasida yaratilgan noyob ishlar sirasiga kiradi. Quvonarlisi, ushbu asar Prezidentimiz tomonidan haqiqiy Jalolliddin Manguberdi timsoli sifatida tan olindi.

Harbiy vatanparvarlik mavzusida ijod qilgan O'zbekiston xalq

rassomi M.Nabiiev ham iste'dodli va mahoratli rassom sifatida tanilgan ijodkorlar sirasiga kiradi. Uning barchaga ma'lum va mashhur "Amir Temur" asari haqiqiy sohibqiron timsoli sifatida tan olingani diqqatga sazovor. Mazkur portretda u sohibqironning buyuk sarkarda, oqil hukmdor va donishmand inson kabi sifatlarini tasvirlashga harakat qilgan va bunga erishgan ham.

Portretda sultanat taqdiri, el-yurt tashvishlari, o'zga yurtlar bilan o'zaro tinch-totuv yashashni, mamlakat sarhadlarini tashqi dushmanlardan himoya qilishni o'ylayotgan hukmdorning taxtda uzoq-uzoqlarga nigoh tashlab o'tirgan badiiy obrazi talqin etilgan.

Asarda qo'llanilgan ranglar tantanavor, shohlaru hukmdorlarga xos keskin, to'q-ko'k, qizil, tillarangli o'ynoqli koloritda uyg'unlashtirilgan. Bu uslub esa

asarga sarkarda o'y-fikrlarini, ichki ruhiy olamini ochishga xizmat qiladigan o'ziga xos ruh bag'ishlagan.

Bugungi kunda ham rassomlarimiz orasida harbiy vatanparvarlik yo'nalishida samarali ijod qilayotgan ijodkorlar juda ham ko'p. Jang lavhalari, harbiy sarkarda va askarlarning qaqshatqich jangohlarda nayza, qilich, bolta va kamon kabi quollar bilan o'limga tik borib, Vatani, yurti tinchligi va osoyishtaligini himoya qilayotgan tasvirlari tarixchi rassom Alisher Aliqulov ijodida ham alohida bir turkumni tashkil etadi.

Bu asarlarni tomosha qilar ekansiz, ulardagi badiiy ifodaviylik, ya'ni an'anaviy syujetlarga yangicha yondashilganlik asar mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu esa ijodkorning izlanishi, mehnati va mahorati mevasidir.

Mahobatli rangtasvir yo'nalishida ijod qiluvchi rassom

R.Xudoyberganovning "Spitamen" asarida ham yangicha yondoshuv ko'zga tashlansa, marhum ijodkor O.Muinovning "Amir Temur" va "To'maris" portretida rassomning ichki fantaziysi o'z ifodasini topgan.

Endi, harbiy vatanparvarlik mavzusini olaylik. Bu mavzuni har bir rassom o'z dunyoqarashi va hissiyotidan kelib chiqib turlicha talqin qiladi, turlicha tasvirlaydi, o'z xohish-istagidan kelib chiqib, turlicha rang tanglaydi. Bu borada rassom O. Muinovning asarlari ayniqsa, diqqatga sazovor.

Shu boisdan ham ijodkor asarlarining aksariyati hozirda O'zbekiston muzeylari va galereyalarida doimiy namoyish qilib kelinadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, harbiy vatanparvarlik mavzusida

haykaltaroshlar ham barakali ijod qilib kelmoqda. Ular tomonidan

yaratilgan bir qancha harbiy qo'mondonlar va tarixiy sarkardalar obrazlari bugungi kunda mamlakatimizning turli shaharlari markaziy maydonlarini bezatib turibdi. Jumladan, taniqli haykaltarosh Ilhom Jabborovning sarkarda va shoh Amir Temurga bag'ishlab ishlagan haykallari Toshkentda, Shahrисabzda, Jaloliddin Manguberdiga bag'ishlab ishlagan haykali Xorazmda, Ravshan Mirtojiev tomonidan Boburning otda ketayotgan mahobatli haykali Andijonda va «Vatanga qasamyod» haykali Toshkentda o'rnatilgan.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimiz qatorida dunyo

xalqlari epik ijodiyotining bebaho xazinasiga aylangan "Alpomish"

dostoniga e'tibor har qachongidan ham kuchaydi. 1998 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligi Xalqaro tashkilot - YUNESKO doirasida keng nishonlandi. Bu esa barcha ijodkorlar qatori haykaltaroshlar uchun ham xalqimizning afsonaviy qahramoni, vatan himoyasi uchun katta fidoyilik ko'rsatgan, jasoratlari tillarda doston bo'lib kuylangan "Alpomish" obrazining

o'ziga xos talqinini yaratishga ilhom bag'ishladi va ular bu borada ulkan ishlarni amalga oshirdilar. Natijada qisqa davr ichida tasviriy va amaliy san'atda xalqimizning afsonaviy qahramoni - Alpomish obrazining har xil talqindagi bir-biriga o'xshamaydigan yangicha qiyofalari yaratildi. Bunda ayniqsa, mahobatli haykaltaroshlikda olib borilgan ijodiy izlanishlar besamar ketmadi.

1999 yilda qadimiy Termiz shahrida epik qahramonga bag'ishlab ishlangan ramziy majmua o'rnatildi.

Mazkur ish A.Rahmatullayev, Q.Norxo'rozov, U.Mardiyev, P.Podosinnikov kabi haykaltaroshlar jamoasi hamkorligida yaratildi. Mahobatli majmuuning ikki yonidagi bo'rtma tasvirlarda Boysun elining afsonaviy manzarasi asosida Alpomishning yori - Barchin va o'g'li Yodgor siymolari ishlangan. Alpomishning mahobatli obrazi mahalliy an'analarga ko'ra ochib berilgan. Buning uchun mualliflar turli badiiy vositalarni ishga solishgan. Qahramonning chap qo'lida afsonaviy yetti botmonli kamon, o'ng qo'lida esa qanotlarini yoyib uchishga shay holatda turgan qush timsoli ifodalangan.

Agar kamon ozodlik va erk timsoli bo'lsa, qush xabar
keltiruvchi, maktub eltuvchi - yaxshilik elchisiga qiyoslanadi.

Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik yillarida xalqimizning
afsonaviy qahramonlari siymolarini yaratish borasida o'ziga xos mifik
yaratildi.

Biz yuqorida Alpomish obrazining ijodkorlar tomonidan har xil
talqin qilingani haqida gapirib o'tdik. Jumladan, akademik Sobir

Rahmetov tomonidan o'ziga xos tarzda ishlangan "Alpomish" portretida alp
o'g'lon ot ustidagi yengilmas jangchi libosida namoyon bo'ladi.

Qahramonning qo'lida kamoni bilan jangga otlanayotgan holati

kompozitsiyada biroz bo'rttirib, mahobatli shaklda joylashtirilgan, - deydi,
san'atshunos Sh.Muxtorova asarga ta'rif berar ekan. - Qo'llari bilan nimalargadir
ishora qilmoqda. Yerga qadalgan nigohlari go'yo sezgir va o'tkir. Bir qo'lida
ko'tarib olgan bahaybat afsonaviy kamoni uning tengsiz bahodir ekanligini
anglatib turibdi, elkasiga osib olgan kamon o'qlari esa uning jangu-jadallarda
qatnashib katta tajriba to'plaganligiga ishora qiladi. Obrazning barcha detallari
ishonchli chiqqan. Tomoshabinlarga qarab turgan oppoq oti zotdor tulporlar
sirasidan bo'lgani bois kishnab turganga o'xshaydi.

Asardagi kolorit gammasi ham biroz og'irroq, qo'proq sovuq ranglarda

to'q jigarrang, qoramtil, kulranglardan foydalangan. Orqa fondagi osmon
ham bulutdan bo'g'iq. Bu bilan rassom osmonning ko'rinishi orqali Alpomishning
xarakterini ochib berishga, o'sha muhitning havosini berishga uringanligining
guvohi bo'lamiz. Ushbu asarning ishlanishi jihatdan italyan rassomi Karavadjo

uslubiga yaqinligini ko'ramiz. Obrazni holatga nisbatan mahobatli qilib, qoidalardan chiqib tasvirlanishi ham shundan dalolat beradi.

Demakki, mardlik, matonat, harbiy vatanparvarlik mavzusi ijodkorlar uchun bitmas-tugamas ijod, ilhom manbaidir. Bugungi kunda ham ushbu mavzu ijod ahli uchun yetakchi mavzulardan sanaladi. Keyingi yillarda rassomlarimiz mustaqillik davrida tashkil etilgan milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan Vatan himoyachilar - ofitserlar, serjantlar va askarlarning bugungi qiyofasini yaratmoqdalar. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutinig tasviriy san'at fakultetida ko'p yillardan beri pedagogik faoliyatini olib borayotgan dotsent Murtozo Ergashevni bu borada faollardan deyish mumkin. Murtozo Ergashev harbiy - vatanparvarlik mavzusida asar yaratish maqsadida respublikamizning turli hududlaridagi harbiy qismlarga borib, u erda o'z burchini sharaf bilan bilan o'tayotgan eng ilg'or askar va serjantlarning obrazini yaratishga erishdi. Rassom shunday mazmundagi rang tasvir asarlaridan birida harbiy dala mashqlarini o'tayotgan jangchini ifodalaydi. Asar fonida ko'm-ko'k, beg'ubor osmonni oppoq bulutlar-u yer, bu yerda suzib yurgan ajib bir manzarali ko'rinishni tasvirlaydi. Asar kompozitsiyasi markazida qurolini bo'lajak harbiy amaliyot oldidan qismlarga ajratib tozalab o'tirgan oddiy askarni aks ettiradi. Asardagi manzara - ko'm-ko'k osmon, har joyda suzib yurgan oppoq bulutlar, erda yam-yashil bo'lib turgan o't-o'lanlarning hamma-hammasi mustaqil Vatanimizning tog'li manzarali fonida iliqlik-issiq, yorqin ranglar bilan uyg'unlashtirilgani tomoshabinni ham beixtiyor o'ziga tortadi. Mazkur asarni rassom "Ogohlik" deb nomlagan.

Murtozo Ergashev yana bir asarida serjant Abdurahim Sobirovning portretini aks ettirgan. Ya'ni asarda jangovar harbiy libosida qo'lida qurolini ushlab sergak turgan Vatan himoyachisining tipik vakili tasvirlangan. Asar fonida ochiq havoli serquyosh yurtimizning ajib tabiat manzarasi ifodalangan. Portretda qo'llanilgan issiq, tiniq va moviy osmonning beg'ubor fonida yozning yoqimli och sarg'imtir yer ranglari uyg'unlashtirilgani asarga o'zgacha shukuh bag'ishlagan.

Zamonaviy tasviriy san'atning rang tasvir yo'lida ijod qiladigan

rassomlardan biri akademik rassom Sobir Rahmetov tomonidan yaratilgan harbiy serjantning portretida ham ona yurt sarhadlarini mardonavor himoya qilayotgan serjant obrazini badiiy kompozitsion yechimda muvaffaqiyat bilan tasvirlangan va uni tiniq ranglar hamohangida ifodalashga erishgan. Asardagi ranglarning soya va yorug' nisbatlari me'yoriy qo'yilmalari bilan ishonarli tarzda berilgani asarning jonli chiqishiga zamin yaratgan.

Yoshlarda yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash uchun tasviriy san'at asarlaridan foydalanilganda, ularda badiiy tasviriy san'at namunalarini,

shuningdek, san'atkor o'z ruhiyatini, dunyoqarashini va voqealarga munosabatini insonlarga yetkazish uchun foydalanayotgan ifoda vositalarini mustaqil ravishda tahlil qilish malakalarini ham unutmaslik kerak.

O'qituvchi tasviri san'at asarlaridan foydalanib, o'quvchilar bilan harbiy vatanparvarlik mavzusida suhbatlar o'tkazishda quyidagi maqsadlar sari intilishi kerak:

1. O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini, vatan va xalq taqdiri uning ham taqdiri ekanligini anglash va uning himoyasiga shaylik hislarini uyg'otish;

2. Badiiy asarlar o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt mustahkam saqlanib qolinishiga erishish;

Yuqorida aytilganlardan shuni xulosa qilish mumkinki, o'qituvchi bunday suhbatlarda faqat tarixiy faktlarnigina emas, balki har bir san'at turining o'ziga hos xususiyatlarining, shuningdek, aniq bir san'at asarini badiiy jihatdan haqqoniy baholashni ham bilishi kerak.

Yuqorida aytilganidek, yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida tasviri san'at va adabiyotning roli kattadir. Ulardan foydalanish o'quv va tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish, barcha ta'lim muassasalari qolaversa ota-onalarning salohiyati, ta'lim va tarbiyaning shakl va uslublarini chuqur bilishlari va ularni amalda qo'llay olish malakalariga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017 y. – 488 b.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7- fevraldaggi PF-4947 sonli Farmoni.
3. SH. Tilavoldiyev, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik va harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi, 2018 y.
4. A.I.Ibragimov, X.X.Sultonov. Vatan tuyg'usi - T. 1996 y.
5. - Vatan himoyasi - muqaddas burch T. Harbiy nashriyot. 2000 y.
6. SH.Tilavoldiyev, Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. Farg'ona. 2021 y.